

TALABALARDA DARSDAN TASHQARI ISHLAR JARAYONIDA AXLOQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Tursunova Malika Sanjar qizi

Navoiy davlat universiteti

“Pedagogika nazariyasi va tarixi”

Yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada axloqiy madaniyatni shakllantirishda darsdan tashqari ishlarning o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilgan bo'lib, darsdan tashqari jarayonlardan namunalar keltirilgan hamda ulardan ko'zlangan natijalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: axloqiy madaniyat, axloqiy tarbiya, ekskursiya, loyiha, o'yinlar, sport, muammoli vaziyat, ijodiy faoliyat, rivojlanish.

Annotation: The article discusses the role and significance of extracurricular activities in the formation of moral culture. Examples of extracurricular processes are presented, and the expected outcomes of these activities are described.


Key words: moral culture, moral education, excursion, project, games, sports, problem situation, creative activity, development.

Аннотация: В статье рассматриваются роль и значение внеурочной деятельности в формировании нравственной культуры. Приводятся примеры внеурочных процессов, а также излагаются ожидаемые результаты их реализации.

Ключевые слова: нравственная культура, нравственное воспитание, экскурсия, проект, игры, спорт, проблемная ситуация, творческая деятельность, развитие.

Talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirish nafaqat dars jarayonida balki darsdan tashqari ishlar jarayonida ham olib borilib, ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy va muhim qismi hisoblanadi. Talabalarda darsdan tashqari faoliyatlar asosida axloqiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni ularning shaxsiy va ijtimoiy kamolotida muhim o'rin tutadi. Bunday faoliyat turlari orqali talabalar axloqiy me'yor va qadriyatlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'zlashtiradilar.

Darsdan tashqari mashg'ulotlar talabalarda jamiyatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirib, ularni ijtimoiy hayotda faol bo'lishga undaydi. Jamoaviy tadbirlarda ishtirok etish orqali o'zaro hurmat, hamkorlik va muomala madaniyati rivojlanadi. Shu bilan birga, talabalar mustaqil fikrlash, tashabbus ko'rsatish va yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etish imkoniga ega bo'ladilar. Darsdan tashqari jarayonlarda talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirish yo'llari quyidagi jadvalda aks etgan:



Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadbirlar jarayonida talabalar milliy va umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar hamda ijtimoiy mas'uliyat tushunchalarini chuqurroq anglay boshlaydilar. Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi buyuk mutafakkirlar, adiblar hayotiga bag'ishlangan uchrashuvlar, olimlar, shoirlar, yozuvchilar bilan davra suhbatlari, adabiy kechalar, ma'rifiy seminarlar va madaniy tadbirlar talabalarning dunyoqarashini kengaytirib, ularning axloqiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar, axborot oqimining tezligi, global raqobat sharoitida o'quvchi va talabalar faqat bilim bilan emas, balki kuchli ma'naviy immunitet, mustahkam hayotiy pozitsiya bilan ham qurollanishi zarur. Shu bois maktab va oliy ta'limda o'tkazilayotgan ma'rifiy uchrashuvlar, badiiy kechalar, ma'naviyat darslari, turli maqsadli seminar va treninglar yoshlar hayotida ruhiy uyg'onish, qadriyatlarga hurmat, jamiyat oldidagi mas'uliyat hissini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. [1]

Klub va to'garaklar (debat klublari, zakovat o'yinlari, kitobxonlik to'garaklari) talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan birga, ularning axloqiy madaniyatini rivojlantirishda muhim tarbiyaviy maydon hisoblanadi. Ushbu ijtimoiy-madaniy faoliyat shakllari talabalarni umumiy manfaat atrofida birlashtirib, ularda jamoaviylik, mas'uliyat va intizom kabi axloqiy sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. To'garaklar va klublarda olib boriladigan mashg'ulotlar talabalarning qiziqish va iqtidorlarini namoyon etish imkonini yaratadi. Bu esa o'z navbatida ularda o'ziga ishonch, tashabbuskorlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Jamoa bilan ishlash jarayonida talabalar o'zaro hurmat, muomala madaniyati va hamkorlik tamoyillarini amaliy faoliyat orqali o'zlashtiradilar.

Klub va to'garaklarning aholi o'rtasida o'rni va ahamiyatini oshirish hamda mustahkamlash maqsadida bir qancha qonun va farmonlar qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-yanvardagi PQ-96-sonli "Zakovat" intellektual o'yinini aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori buning yorqin ifodasi. Unda intellektual o'yinlarni nafaqat yoshlar, balki aholining barcha qatlamlari o'rtasida targ'ib qilish, ushbu o'yinlarni ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirishni ta'minlash, shuningdek, milliy intellektual o'yinlarni shakllantirish, ularni ommalashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, intellektual o'yinlar umumiy o'rta ta'lim maktablari, Prezident ta'lim muassasalari, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari hamda oliy ta'lim muassasalari, ko'ngilli jamoalar o'rtasida tizimli ravishda o'tkazib borilishini ta'minlash asosiy vazifa etib belgilandi. [2]

Volontyorlik faoliyati va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirishning samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu faoliyatlar talabalarni jamiyat muammolariga befarq bo'lmaslikka, ijtimoiy mas'uliyatni chuqur his etishga hamda insonparvarlik tamoyillariga amal qilishga undaydi. Volontyorlik jarayonida talabalar o'z bilim va imkoniyatlarini boshqalar manfaatiga yo'naltirish orqali axloqiy qadriyatlarni amaliy faoliyatda namoyon etadilar.

Ijtimoiy loyihalar doirasida talabalar jamoa bilan ishlash, muammolarni tahlil qilish va ularning yechimlarini topish ko'nikmalarini egallaydilar. Bu jarayon ularda hamkorlik, o'zaro hurmat, adolatli munosabat va tashabbuskorlik kabi axloqiy sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish talabalarni mustaqil qaror qabul qilishga, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga va natijaga yo'naltirilgan faoliyat olib borishga o'rgatadi. Volontyorlik faoliyati orqali talabalarda bag'rikenglik, sabr-toqat va boshqalarga yordam berishga tayyorlik kabi insoniy fazilatlar rivojlanadi. Turli ijtimoiy

guruhlar bilan muloqot qilish esa talabalarning dunyoqarashini kengaytirib, ularning muloqot va muomala madaniyatini yuksaltiradi.

Madaniy-ma'rifiy ekskursiyalar talabalarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish va axloqiy madaniyatini shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Tarixiy obidalar, muzeylar, teatrlar, kutubxonalar, tasviriy san'at ko'rgazmalari, madaniyat maskanlari hamda muqaddas qadamjolarga uyushtiriladigan ekskursiyalar orqali talabalar milliy meros, tarixiy xotira va umuminsoniy qadriyatlarni chuqurroq anglay boshlaydilar. San'at asarlari, eksponatlar, adabiyotlar orqali dunyoqarashi kengayadi; teatr, ko'rgazma, san'at galareyalari orqali insonning go'zallikni ko'ra bilish qobiliyati rivojlanadi; teatr tomoshalari orqali insonning empatiyasi, ruhiy sezgirligi, ichki dunyosi boyiydi; tarixiy joylar va

muzeyga tashrif orqali o'z xalqining tarixi, merosi, buyuk shaxslarini anglash va qadrlash, tarbiyalanadi, o'z ildiziga hurmat oshadi.

Ekskursiyalar madaniy turizmning muhim qismidir. Ekskursiyalar sayohatchilarga mintqa tarixi, arxitekturasini va madaniyatini o'ziga xos va interaktiv tarzda o'rganish imkonini beradi. Ekskursiyalar orqali tashrif buyuruvchilar mintaqaning o'tmishi va buguni, uning hikoyalari va afsonalari, diqqatga sazovor joylari va tovushlari haqida bilib olishlari mumkin. Respublikamizda ham madaniy ekskursiyalar tashkil etish va bunda o'quvchilar, talabalar, professor-o'qituvchilarning ishtirokini ta'minlashga alohida e'rtibor qaratilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6-apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 945 gi PF-6199 sonli Farmoni ga binoan Turizm va sport vazirligi huzurida Madaniy meros agentligi tashkil etildi. Moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ'ib qilish davlat reyestri, elektron katalogi, davlat kadastrini yuritish hamda sohada davlat nazoratini amalga oshirish kabilar agentlikning asosiy vazifalari sifatida belgilanganligi mamlakatimizda tarixiy-madaniy turizmni yanada rivojlantirishga oid tizimli ilmiy-metodologik tadqiqotlar olib borish muhim. [3]

Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish talabalarda axloqiy madaniyatni rivojlantirishda samarali pedagogik usullardan bo'lib, ushbu yondashuv talabalarning real hayotda uchraydigan ijtimoiy va axloqiy muammolarni anglash, baholash hamda ularga nisbatan ongli munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Muammoli vaziyatlar ustida ishlash jarayonida talabalar turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish, axloqiy me'yorlar asosida xulosa chiqarish va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishni o'rganadilar. Bu esa ularda adolat, halollik, vijdonlilik va bag'rikenglik kabi axloqiy fazilatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijodiy faoliyat orqali talabalar o'z qobiliyatlarini namoyon etish bilan birga, axloqiy qadriyatlarni amaliy jihatdan o'zlashtiradilar. Ijodiy ishlanmalar, san'at, adabiyot, ilmiy-tadqiqot yoki loyihaviy faoliyat talabalarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Ijodiy jarayon talabalarga hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'z fikrini asoslab ifoda etish, boshqalar fikrini qadrlash va konstruktiv munozaralarda ishtirok etish imkonini beradi. Shu bilan birga, ijodiy faoliyat orqali talabalarda estetik did, sabr-toqat, aniqlik va mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlar rivojlanadi. Ijodiy faoliyat talabalarning

ruhiy va ma'naviy holatini boyitadi, ularni ijtimoiy hayotdagi muammolarga befarq bo'lmaslik, insonparvarlik va bag'rikenglik tamoyillariga rioya qilishga o'rgatadi. Bu esa ularning axloqiy madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sport faoliyati talabalarning nafaqat jismoniy sog'lomligini, balki axloqiy madaniyatini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Jamoaviy o'yinlar va musobaqalarda ishtirok etish talabalarni adolat, halollik, intizom va hurmat kabi axloqiy qadriyatlarga amal qilishga o'rgatadi. Sport jarayonida talabalar raqobatbardosh ruhni rivojlantirib, g'alaba va mag'lubiyatni ma'naviy yetuklik bilan qabul qilishni o'rganadilar. Sportning jamoaviy shakllari talabalarni hamkorlik, murosaga kelish, boshqalar fikrini hurmat qilish va o'z pozitsiyasini asoslash ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, muntazam jismoniy mashqlar va musobaqalar talabalarda mehnatsevarlik, sabr-toqat va o'z ustida ishlash madaniyatini rivojlantiradi. Sport faoliyati talabalarda sog'lom raqobatni qadrlash, shaxsiy va jamoaviy mas'uliyatni his etish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi. Bu esa ularning axloqiy madaniyati va shaxsiy yetukligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli axloqiy tarbiya zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda axloqiy madaniyatni shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli resurslardan foydalanish jarayonida talabalar axloqiy me'yorlar, odob-axloq qoidalari va axborot xavfsizligini amaliy tarzda o'rganadilar. Raqamli axloqiy tarbiya talabalarni mas'uliyatli onlayn xatti-harakatlarga, boshqalar huquqlarini hurmat qilishga va axborotdan ongli foydalanishga o'rgatadi. Talabalarda raqamli axloqiy tarbiya orqali quyidagi fazilatlar rivojlantiriladi: halollik, mas'uliyat, intizom, sabr-toqat va boshqalar bilan madaniyatli muloqot qilish qobiliyati. Shuningdek, talabalar noto'g'ri ma'lumotlarni tanib olish, kiberhujumlardan saqlanish va axborot resurslarini samarali hamda etik tarzda ishlatish ko'nikmalarini egallaydilar

Xulosa qilib aytganda, Darsdan tashqari ishlar esa talabalarda axloqiy fazilatlarni amaliy tarzda rivojlantirish imkonini yaratadi. Klub va to'garaklar, volontyorlik va ijtimoiy loyihalar, madaniy-ma'rifiy ekskursiyalar, sport va ijodiy faoliyat orqali talabalar o'zaro hurmat, hamkorlik, bag'rikenglik, adolat va mas'uliyat kabi sifatlarni shakllantiradilar. Shu bilan birga, raqamli axloqiy tarbiya ularni onlayn muhitda ham mas'uliyatli va madaniyatli bo'lishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimova G.X. Talabalar hayotida ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarning o'rni// maqola Volume 11, November 2025
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-yanvardagi "Zakovat" intellectual o'yinini aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellectual o'yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-96-sonli qarori <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6-apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 945 gi PF-6199 sonli Farmoni <https://lex.uz>